

TIJORAT BANKKARIDA MUAMMOLI KREDITLAR (NPL) ULUSHINI KAMAYTIRISH HAMDA MAVJUD KREDIT PORTFELINI MUAMMOLI KREDITGA AYLANISHDAN HIMOYALASH.

F.MAXMUDOV

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute talabasi

Ilmiy rahbar:

O.MELIKOV

Annotatsiya: *Ushbu maqola tijorat banklarida bugungi kunda kredit portfelining tutgan o'рни hamda muammoli kreditlarning sog'lomlashtirish chora-tadbirlari takomillashtirish orqali muammoli kredit(NPL)lar bilan ishlash analiz qilingan bo'lib, kredit portfelidan muammoli kreditlarni kamaytirish borasida bazi tavsiyalar ham berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, aktivlar, kredit portfellari, kredit, risk, muddati o'tgan to'lovlar.*

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotimiz yuqori suratlarda rivojlanayotgan bo'lib, tadbirkorlik uchun yurtimizda keng shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan tadbirkorlik rivojlantirish maqsadida, tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslar uchun ko'plab kredit va imtiyozlar taqdim qilinmoqda. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 4498-sonli 24.10.2019-yildagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'chimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 39-sonli 31.01.2023-yildagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'lla-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 306-sonli 14.09.2023-yildagi qarorlari aholi hamda tadbirkorlar uchun biznesni boshlashda yoki mavjud biznesni yanada takomillashtirish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishda qulay investitsiya sifatida xizmat qilmoqda. Bundan tashqari fuqarolar uchun uy-joy sotib olish maqsadida Ipoteka kreditlari, Avtotransport vositasi sotib olish uchun avtokreditlar, Shaxsiy extiyojlarni qondirish maqsadida mikroqarzlar ham tijorat banklari tomonidan jadal ravishda moliyalashtirilib borilmoqda.

Shu o'rinda yana bir holatni yodda tutishimiz lozim, tijorat banklar tomonidan ushbu holatlar jadallik bilan moliyalashtirilishi bilan bir qatorda ushbu kreditlarning qaytarilish haqida ham qayg'urishi lozim, buning uchun banklarda kredit ta'minoti (garov) likvidliligi muhim o'rin tutadi.

Yuqorida keltirilgan qarorlar (PQ 4498-sonli, PQ 39-sonli, PQ 306-sonli) asosida moliyalashtirilgan loyihalar ya'ni imtiyozli kreditlarning muammoga aylanishga asosiy sabab, tadbirkorning ushbu sohada bilim ko'nikmasi yetarli emasligi, garov ta'minotning talablarga javob bermasligi ba'zi hollarda bank xodimlarining qo'pol kamchiliklari deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda¹.

Bugungi kunda mamlakatimizda "muammoli kredit" tushunchasi oldingi yillarga qaragan ancha ko'proq bahs va muzokaralarga sabab bo'lishiga qaramasdan ushbu ko'rsatkich yanada o'sib bormoqda.

Bugungi kunda ko'pgina davlatlar bank tizimida umidsiz qarzlarning ko'payishi muammosiga duch kelayotganligi tufayli banklarning muammoli kreditlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish masalalari dolzarbligi hozirgacha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun kreditorlar bilan bir qatorda mijozlar tomonidan kreditni qaytarish bo'yicha o'z yechimini topmagan muammolar mavjud.²

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda iqtisodiy tarmoqning jadal ravishda rivojlanishi bevosita bank kredit siyosatidagi o'rganishlarni, aynan muammoli kreditlar sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni va izlanishlarni yanada takomillashgan holatda olib borilishini talab qilmoqda va bu borada yurtimizda ham ko'plab olimlar ilmiy ishlar olib borishmoqda. Jumaladan, B.A.Qalandarov o'zining ilmiy maqolasida – "Mumammoli kreditlarning yuzaga kelishi kredit riskining ta'siri bilan bog'liq bo'lib, natijada bank qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarinin o'z vaqtida va to'liq qaytara olmasligi va bank bunday qarz oluvchiga kredit berish bilan bog'liq zararlarni keltirib chiqarishi mumkinligidan xavotirda bo'ladi"³ deb aytib o'tgan.

Ushbu holatlarda, ya'ni muammoli kreditlarning kredit portfelidagi ulushini minimallashtirish borasida qator xorijiy olimlar tomonidan turli usullar yordamida tadqiq qilish maqsadida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, Kuznitsov S.V

¹ .2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son
<https://lex.uz/docs/4811025?ONDATE=30.12.2021&ONDATE2=18.10.2021&action=compare>

² .Muhammadiyev, Dilmurod Abdulhakim O'G'LI TIJORAT BANKLARI RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

YO'LLARI // ORIENSS. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklari-resurslaridan-samaralifoydalanish-yo-llari> (дата обращения: 08.12.2022).

³ .https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/1_Kalandarov.pdf

(2008), **N.Sokolinskaya**, Baron, Xion, A.Bollard bu borada o'z yondasguvlarga ega.

Tadqiqotchi Kuznitsov S.V (2008) ilmiy ishida shunday deydi:

- muammoli kredit – bu qarzdor va o'z majburiyatlarini bank bilan qabul qilgan bitimlar va kelishuvlarga muvofiq to'liq bajara olmaydigan kreditdir, shuning uchun qardorning majburiyatlari bo'yicha muddati o'tgam to'lovlar bank uchun qizman yoki to'liq yo'qotish xavfi demakdir.⁴

N.Sokolinskaya —kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iborat deb ta'riflaydi va muammoli kreditlarni boshqarish masalasiga alohida to'xtalib o'tadi⁵. Bu ta'rifda asosiy e'tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit holatini va mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki, bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo'yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit klassifikatsiyasi sifatini aniqlashda muhim omil bo'lishi mumkin.

Iqtisodchi olimlar Baron, Xiong va boshqalarning fikricha 'kredit porfelining o'sishi odatda yomon yakun topadi va moliyaviy ko'rsatkichlarni zaiflashtiradi"⁶ deb tushunishadi. Bu fikr agarda tijorat banklari tomonidan kreditlash jarayonida kamchiliklarga yo'l qo'yilgan taqdirda yoki haqiqatda kreditlash jarayoni haddan ziyot ko'payib ketganida to'g'ri bo'lishi mumkin deb o'ylaymiz.

A.Bollardning fikricha " kredit qo'yilmalarning belgillangan meyyorlardan sezilarli darajada o'sib ketishi, aktivlar va passivlar tarkiblari o'rtasidagi mutanosiblikning sezilarli o'zgarishi, bank passivlarining, jumladan, mijozlarning jalb qilgan mablag' (omonat, deposit va shunga o'xshash daromatli qo'yilmalar) larining xatara darajasi oshganligaidan dalolat beradi va eng muhimi, bank faoliyatida omonatchilar va kreditorlarning mablag'lariga, ularning ishonchiga juda bog'liq lkigi bilan izohlanadi"⁷ deb ta'riflaydi.

Bazel qo'mitasining ma'limotlariga ko'ra, muammoli kredit bu – qarz oluvchining bank oldidagi majburiyatlarini bajarish muddalarining sezilarli darajada buzilishi, qarz oluvchining moliyaviy ahvoli sezilarli darajada yomonlashuvi va garov sifatining sezilarli darajada pasayishi yoki yo'qotilishi bo'lgan kreditdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mazur maqolada jadvallar, grafiklar, ko'rgazmalar, analitik taqqoslash, guruhlash usullari hamda ushbu mavzuga oid xorijiy hamda yurtimizdagi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlaridan keng foydalanilgan.

Mazkur maqolada tijorat banklarida muammoga aylanayotgan, muammoli kreditlar taxlil qilingan, kredit portfelidagi sog'lom kreditlarni umidsiz kreditlar holatiga olib bormaslik, kreditlash jarayonini to'g'ri tashkil

4. Кузнецов С.В. (2008) "Сеудная задолженность кредитных организаций: проблемы и инструменты ее урегулирования / Автореф. дисс ... канд. экон. наук. М...

5. Диана Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах. - ИЭР МБРР.-Вашингтон Д.С., 2011.-с.75

6. (Барон ва Хiong, 2017; Жорд ва бошк., 2013; Рейнхарт ва Рогофф, 2009; Шуларик ва Тейлор, 2012).

7. Bollard A. (2003) Corporate governance in the financial sector//BIS Review. № 18. P

qilish hamda muammoli kreditlarni sog'lomlashtirish manbaalari aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mummoli kreditlar "qoniqarsiz", "shubxali", "umidsiz" kreditlar sifatida tasniflanadi. Mummoli kreditning vujudga kelishiga asosiy asbab deb, biznes reja ko'rsatkichlarini o'z vaqtida bajarilmasligini asos qilishimiz mumkin. Chunki bugungi kunda tadbirkorlar tomonidan biznes reja tahlilida faqatgina yuqori natijalar qayd etiladi vaholanki loyihani amalga oshirish jarayonida ko'zda tutilmagan xarajatlar ham vujudga kelib bu kredit qaytarish jarayonini kechikishiga olib keladi.

Muammoli kreditlarning vujudga kelishidan tijorat banklari doimiy ravishda xavotirda bo'lishi lozim, chunki muammoli kreditlarning vujudga kelishi tijorat banki uchun zarar hisoblanadi. Shuning hisobiga tijorat banklarida "umidsiz" deb hisoblangan ya'ni to'lov jarayoni 180 kundan kechikkan holatlarda ushbu kredit xatarli hisoblanadi.

Ko'p holatlarda muammoli kreditlar, kredit hujjatlarining yuzagi tuzilishi, aniq maqsadda olingan kreditlarning talon-taroj qilinishi, haqiqatda amalga oshirilgan tadbirkorlikning bozor qiymati tushib ketishi, tabiiy ofatlar sababli vujudga keladi deb hisoblaymiz.

Kreditlash jarayonini qonuniy amalga oshirilganida, kredit ta'minot likvidiligi tasdiqlangan holatlarda kreditning muammoli vaziyatga kelishi qiyin vaziyat hisoblanadi, chunki bu holatda korxonalar yoki jismoniy shaxslar garovni yo'qotishni ya'ni qimmat mulkini past narxga yutqazib qo'yishni xoxlamaydi, bu holatlarda tadbirkor hamda jismoniy shaxslarning amalga oshirgan loyihasi o'zini oqlamagani hisoblanadi, ammo har bir tadbirkor hamda jismoniy shaxslar qanday qilib bo'lsa ham ushbu muammoni hal qilish yo'lini o'rganadi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, banklarning muammoli kreditlarini yuzaga kelishida ichki omillar 67 foiz yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Bu ko'rsatkich tashqi omillar bo'yicha bor yo'g'i 33 foizni tashkil etadi. Ichki omillarga ta'minotning etishmasligi 22 foizni, ssuda buyurtmasini o'rganishda axborotning noto'g'ri baholanishi 21 foizni, operatsiya nazoratining zaifligi, hamda dastlabki ogohlantiruvchi belgilarni o'z vaqtida aniqlanmasligi va ular yuzasidan tegishli choralarning ko'rmasligi 18 foizni, garov ta'minoti sifatining pastligi 5 foizni, shartnomada ko'rsatilgan ta'minotni olish imkoniyatining yo'qligi 1 foizni tashkil etgan. Tashqi omillarga esa kompaniyaning bankrot bo'lishi 12 foizni, korxonalar moliyaviy nazoratining kuchsizligi 11 foizni, kompaniyaning bozorda o'z

o'rnini yo'qotishi va ichki ijtimoiy muammolar 6 foizni, o'g'irlik, muttahamlik 4 foizni jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra tashkil etgan.⁸

Haqiqatda ushbu holatlarni ham muhokama qiladigan bo'lsak, bu yerda ham asosiy rol ni ichki olmillar olib turibdi, ishlab chiqarish hajmi, sotuv hajmi, korxonada xodimlarning faoliyat darajasi hamda korxonaning sohaga oid bilim ko'nikmasini ichki omillarda asosiy ro'l o'ynaydi. Chunki biz ishlab chiqargan mahsulotni bozorini tashlashda adashishimiz biz uchun zarar hisoblanadi vaholanki zararda ishlab tugan korxonalar kredit majburiyatida qiyinchiliklarga duch keladi.

Keying yillarda muammoli kreditlar bilan ishlash sohasida yurtimizda ko'plab ishlar olib borilmoqda.

1-jadval

2024-yil 1-yanvar holatiga

Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida ma'lumot				
				<i>mlrd. so'm</i>
№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		471 406	16 621	3,5%
Davlat ulushi mavjud banklar		333 298	13 267	4,0%
1	O'zmilliybank	99 423	3 098	3,1%
2	O'zsanoatqurilishbank	57 124	1 283	2,2%
3	Agrobank	54 483	2 071	3,8%
4	Asaka bank	39 213	1 731	4,4%
5	Xalq banki	24 549	1 855	7,6%
6	Biznesni rivojlantirish banki	21 801	1 935	8,9%
7	Mikrokreditbank	14 437	865	6,0%
8	Turon bank	11 894	271	2,3%
9	Aloqa bank	10 294	157	1,5%

⁸.www.worldbank.orgning 2022-yildagi ma'lumotlari asosida

"НАДЕЖДА НАЦИИ"

МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНКУРС НАУЧНЫХ РАБОТ

10	Poytaxt bank	79	2	2,3%
	Boshqa banklar	138 107	3 354	2,4%
11	Ipoteka-bank	37 264	1 733	4,7%
12	Kapital bank	26 586	375	1,4%
13	Hamkorbank	15 854	99	0,6%
14	Ipak yo'li bank	11 701	251	2,1%
15	Orient Finance bank	8 448	25	0,3%
16	Invest Finance bank	6 431	68	1,1%
17	Davr bank	5 004	32	0,6%
18	Trast bank	4 947	101	2,0%
19	Tenge bank	4 208	109	2,6%
20	Tibisi bank	3 730	73	1,9%
21	Asia Alliance bank	3 712	55	1,5%
22	Anor bank	3 169	64	2,0%
23	KDB bank O'zbekiston	2 651	0,0	0,0%
24	Ziraat Bank Uzbekistan	1 595	36	2,2%
25	Universal bank	1 162	35	3,0%
26	Garant bank	922	43	4,7%
27	Madad invest bank	292	39	13,2%
28	Oktobank	249	212	85,2%

"НАДЕЖДА НАЦИИ"

МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНКУРС НАУЧНЫХ РАБОТ

2 9	Uzum bank	50	0,0	0,0%
3 0	Yangi bank	46	0,0	0,0%
3 1	Hayot bank	30	0,0	0,0%
3 2	Apeks bank	29	0,0	0,0%
3 3	Eron Soderot banking ShB	22	4	17,6%
3 4	AVO bank	7	0,0	0,0%
3 5	Smart bank	0,3	0,0	0,0%

manba: www.sbu.uz <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1569298/> 2023-yil 2-yarmi holati 9

1-jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimizda 2024-yil 1-yanvar xolatida muammolikreditlar hajmi 471 406 mlrd. Ni tashkil qilmoqda, bu esa umumiy kredit porfelining 3,5 foizini muammoli kreditlar tashkil qilmoqda. Bu yerda yuqori o'rinni davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar orasida "Biznesni Rivojlantirish Banki" (olidingi "Qishloq Qurilish Baki") egallab turibdi, ya'ni 21 801 mlrd so'm, kredit portfelining esa 8,9 foiz qismi muammoli kreditga aylanib ulgurgan.

Boshqa tijorat banklar orasida esa "Oktobank" yuqori o'rinni egallab turibdi, umumiy hisobda kredit porfeli 249 mlrd. bo'lsa, shundan 212 mlrd yoki 85,2 foiz qismi muammoli kredit hisobiga to'g'ri kelmoqda bu esa ushbu bankning kelgusi ko'rsatkichlarida asosiy rol o'ynaydi.

No	To'lov	Asosiy	Foiz	Qarzdorlik
1 2	1491730.4	931730.42	560000	13068269.5 8
2 2	1491730.4	968999.63	522730.7 8	12099269.9 5
3 2	1491730.4	1007759.6 2	483970.8	11091510.3 3
4 2	1491730.4	1048070	443660.4 1	10043440.3 2
5 2	1491730.4	1089992.8	401737.6 1	8953447.52

9. www.sbu.uz <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1569298/> 2023-yil 2-yarmi holati

"НАДЕЖДА НАЦИИ"

МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНКУРС НАУЧНЫХ РАБОТ

6	2	1491730.4	2	1133592.5	358137.9	781985
7	2	1491730.4	2	1178936.2	312794.2	6640918.78
8	2	1491730.4	7	1226093.6	265636.7	5414825.12
9	2	1491730.4	1	1275137.4	216593	4139687.71
0	2	1491730.4	1	1326142.9	165587.5	2813544.8
1	2	1491730.4	3	1379188.6	112541.7	1434356.17
2	2	1491730.4	7	1434356.1	57374.25	0

Mummoli kreditlarning o'sishiga kredit portfelining o'sishini sabab deb ayta olmaymiz chunki kredit portfeli yuqori lekin muammoli krediti (NPL ulushi) past bank tijorat banklar ham mavjud.

Muammoli kreditning o'sishiga, banklarda qo'yiladigan foiz stavkalarining yuqoriligi ham sabab bo'lishi mumkin, keling shu sohada ozgina tadqiqot olib boramiz:

Bugunki kunda ko'pgina tijorat banklarida yuqori foiz stavkasi asosida mikroqarzlilar ham fuqarolar uchun taqdim qilib kelmoqda, ba'zi banklar hattoki yillik 48% hisobiga mikroqarzlilar ham ajratmoqda, ularga kredit to'lovi kechikishi hisobiga hisoblanadigan penyalari ham mavjud bo'lib bu bank mijozlarining kredit qarzi oshib ketishi shu bo'is ushbu to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshira olmaslik xolatlari mavjud.

Misol uchun:

Bank mijoz M.B davlat korxonasida faoliyat yuritib kelayotgan paytda oylik daromadi 3 000 000 (uch million) so'mni tashkil qilar edi, ushbu oylik teng 50% qismini kredit to'lovi uchun yo'naltirganimizda fuqaro 48% ustama to'lash sharti bilan 12 oy muddatda oylik to'lovi 1 491 730 (bir million to'rt yuz to'qson bir ming yetti yuz o'ttiz) so'm to'lanadiga 14 000 000 (o'n to'rt million) so'm mikroqazr oldi va kredit grafigi quyidagicha edi:

kredit shartnomasiga asosan to'lov sanasi har oyning 10 kuni etib belgilangan bo'lib, har bir kechikkan kun uchun bank foydasi qo'shimcha, to'ladigan oylik to'lovning 0.005% qismi penya sifatida undirilishi ko'zda tutilgan edi.

Bank mijoz M.B kredit to'lovining 5-oyiga kelib sog'lig'idagi muammo sababli ketma-ket 3 oy ishlay olmaganligi hamda kredit to'lovinini ham amalga oshira olmaganligi hisobiga fuqaroga qarzdorlik quyidagicha hisoblandi:

To'lov	Asosi y	Foiz	Qarzdorlik	Hisoblangan penya	Umumiy oyli to'lov
1 491 730.42	1 089 992.8	401 737.61	8 953 447.52	172 295	1 664 025
3 155 755.84	1 133 592.52	358 137.9	7 819 855	364 489.84	3 520 245.6
5 011 976.02	1 178 936.22	312 794.2	6 640 918.78	578 883.23	5 590 859.25

Mijoz M.B ning umumiy 3 oylik kredit qarzdorligi 5 590 859.25 (besh million besh yuz to'qson ming sakkiz yuz ellik to'qqiz) so'm 25 tiyinni tashkil qilib fuqaro M.B ning sog'ligida muammo sabab fuqaro 3 oy davomida ishlay olmaganligi shu boiz kredit to'lovini kechikishi vujudga kelganligini bankka ma'lum qilgan.

Bank tomonidan esa fuqarodan kredit qarzdorligini sud tartibida undirish uchun sudga davo arizasi yuborildi hamda fuqarodan sud hamda MIB (majburiy ijro byurosi) xarajatlarini qoplash uchun qo'shimcha 273 695 (ikki yuz yetmish uch ming olti yuz to'qson besh) so'm qarzdorlik hisoblandi va fuqaro umumiy 5 864 554.25 (besh million sakkiz yuz oltmish to'rt ming besh yuz ellik to'rt) so'm 25 tiyin qarzdor deb topildi. Fuqaro M.B o'z xizmat faoliyatini tiklashi bilan uning oylik maoshini teng 50% qismi MIB tomonidan kredit qarzdorlik uchun yo'naltirilishi yo'lga qo'yildi, ammo har oy 1 500 000 (bir million besh yuz ming) so'm kredit to'lovi qoplanishiga qaramasdan, kredit qarzdorligi o'sishda davom etadi hamda kredit qarzdorligini qoplash kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatdan o'tib ketishi o'z o'rnini bankning kredit portfeliga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq.

Ushbu holatda mijozning vaziyatidan kelib chiqib, mijozni bankka taklif qilish orqali qarzdorlik vujudga kelgan o'zida mijozga vaqtinchalik kredit ta'tili taqdim qiliganda esa fuqaro faqatgina ta'til olingan muddat uchun foiz qarzdorligini to'lash orqali kredit tarixini ijobiylikicha saqlab qolishga erishar edi bu esa albatta ham mijoz uchun ham bank uchun foydali hisoblanadi.

Agarda kredit ta'tili taqdim qilinganda fuqaroning uch oylik umumiy qarzdorligi 2 696 943,25 (ikki million olti yuz to'qson olti ming to'qqiz yuz qirq uch) so'm 25 tiyinni tashkil qiladi va ushbu qarzdorlikni to'lash mijoz uchun ancha yengil hisblanar edi.

Muammoli kreditlarni kamaytirish borasida kreditorlarga ko'pgina imkoniyatlar yaratilgan bo'lib ushbu imtiyozlardan o'z vaqtida hamda o'z o'rnida foydalanish kredit yukining oshib ketishi, qo'shimcha ko'zda tutilmagan xarajatlar ya'ni penya va jarimalar to'lanishini oldini olish uchun ayni muddao hisoblanadi.

XULOSA VA MUHOKAMALAR

Bizning fikrimizcha mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarni muammoli kreditlarga aylanmasligini oldini olish maqsadida quyidagi takliflarni keltirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

- tijorat banklariga kredit olish istagini bildirib ariza yuborgan mijozlarning moliyaviy holatini inobatga olish hamda kredit yuki, biznes reja tahlili, amalga oshirilayotga loyihaning bozorbopligi, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish yo'nalishida imtiyozli kredit ajratiladiga bo'lsa o'z mijozlariga ega ekanligi inobatga olish;

- bank xodimlari tomonidan kredit xujjatlari uchun talab qilinadigan xujjatlarning to'liq hamda haqqoniy ekanligini ta'minlash, xujjatlarni rasmiylashtirish jaronida beparvolikka yo'l qo'ymaslik va albatta yuqoridagi misolda keltirilgan holatlarni oldini olish uchun ko'zda tutilmagan xarajatlar vujudga kelganda mijozning qo'shimcha daromatlarini haqida ma'lumotga ega bo'lishi, ushbu xolatni qanday bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlar yetarli bo'lishi lozim ;

- loyiha moliyashtirilgandan keyin biznes reja tahlilini muntazam yuritib borish;

- garov ta'minot mavjud bo'lsa dastlab uning yuqori baholanishini oldini olish, keyinchalik uning joriy holatini muntazam o'rganib borish;

- mijozning holatida kelib chiqib unga yuqorida keltirib o'tilgan kredit ta'tili hamda shunga o'xshash imtiyozlardan mizjozni o'z vaqtida xabardor qilish lozim bo'lganda esa imtiyoz ajratish berish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2020 — 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-sonttps://lex.uz/uz/docs/4811025?ONDATE=30.12.2021&ONDATE2=18.10.2021 &action=compare

2. Muhammadiyev, Dilmurod Abdulhakim O'G'LI TIJORAT BANKLARI RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI // ORIENSS. 2021. №8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tijorat-banklari-resurslaridan-samaralifoydalanish-yo-llari> (дата обращения: 08.12.2022).

3. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/1_Kalandarov.pdf

4. Кузнецов С.В. (2008) "Ссудная задолженность кредитных организаций:

проблемы и инструменты ее урегулирования / Автореф. дисс канд. экон. наук. М.,.

5. Диана Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах.- ИЭР МБПП.-Вашингтон Д.С., 2011.-с.75

6. (Барон ва Хионг, 2017; Жорд ва бошқ., 2013; Реинхарт ва Рогофф, 2009; Шуларик ва Тейлор, 2012).

7. Bollard A. (2003) Corporate governance in the financial sector//BIS Review. № 18. P

8. www.worldbank.orgning 2022-yildagi ma'lumotlari asosida

"НАДЕЖДА НАЦИИ"

МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНКУРС НАУЧНЫХ РАБОТ

9. www.sbu.uz <https://cbu.uz/uz/statistics/bankstats/1569298/> 2023-yil 2-yarmi holati

